



**TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY
MASALALARI**

Yoqubova Marjona Ilhom qizi

Navoiy Davlat Universiteti magistranti

E-mail: yakubovamarjona04@gmail.com

Tel: +998 93 962-95-05

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi "Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy masalalari" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Tezisdagi zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasidagi o'rni, ularning ta'lim jarayoniga kiritilishi va samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda axborot texnologiyalarining turli xil usullari, ularning ta'limga ta'siri, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, raqamli kompetensiya, o'qituvchi tayyorlash, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion metodlar.

Аннотация: Данная диссертация посвящена изучению темы «Теоретические вопросы повышения эффективности использования современных информационных технологий в образовательном процессе». В диссертации анализируется роль современных информационных технологий в образовании, их внедрение в образовательный процесс и их роль в повышении их эффективности. В данном исследовании рассматриваются различные методы информационных технологий, их влияние на образование, а также их интеграция с современными педагогическими подходами.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровая компетентность, подготовка учителей, педагогические условия, инновационные методы.

Abstract: This thesis is devoted to the study of the topic "Theoretical issues of increasing the effectiveness of the use of modern information technologies in the educational process." The thesis analyzes the role of modern information technologies in education, their introduction into the educational process and their role in increasing their effectiveness. This study discusses various methods of information technologies, their impact on education, as well as their integration with modern pedagogical approaches.

Keywords: information technologies, digital competence, teacher training, pedagogical conditions, innovative methods.

Kirish

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnika rivojlanishining jadal sur'atlari ta'lim tizimida ham tub islohotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ta'lim sifatini



o'shish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'limni raqamlashtirish, onlayn va masofaviy o'qitish tizimlarini rivojlantirish, elektron resurslardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, ta'limda axborot texnologiyalaridan oqilona va maqsadli foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish va ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Zamonaviy axborot texnologiyalari — bu axborotni qabul qilish, uzatish, qayta ishlash va saqlashni amalga oshiruvchi raqamli vositalar majmuasidir. Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalarning qo'llanilishi pedagogik faoliyatga yangi yondashuvlarni olib kirmoqda. Raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantirishdir. Bu holat nafaqat o'qituvchining kasbiy faoliyatini yengillashtiradi, balki o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tezisning asosiy qismi AKTdan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: AKT bo'yicha zamonaviy bilimlar tizimini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy dasturiy vositalar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish bo'yicha chuqurlashtirilgan o'quv dasturlarini joriy etish, amaliyotga asoslangan ta'lim metodlarini qo'llash, interaktiv va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarni elektron platformalarda mustaqil ishlashga o'rgatish, ular orasida Google Classroom, Zoom, Moodle, Canva kabi vositalardan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash, innovatsion o'quv muhitini yaratish, elektron kutubxonalar, raqamli laboratoriyalar, virtual sinflar orqali o'quv muhitini boyitish, bu orqali talabalarni ilg'or texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash kabilardir. Motivatsion yondashuvlarni shakllantirish, o'qituvchilik kasbining innovatsion imkoniyatlarini yoritish, AKT yordamida dars jarayonining samaradorligini oshirish misollarini namoyish etish orqali bo'lajak o'qituvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, monitoring va baholash tizimini joriy etish, talabalar tomonidan AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha monitoring olib borish hamda ularning raqamli savodxonlik darajasini aniqlash va individual yondashuv asosida ko'maklashish kabi yo'nalishlar kiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari deganda, bilimlarni uzatish, saqlash, tahlil qilish va ularga kirishni ta'minlovchi texnologik vositalar majmui tushuniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- O'quv platformalari (Moodle, Google Classroom, Edmodo);
- Multimedia vositalari (interaktiv doskalar, video va audio darslar);
- Sun'iy intellekt elementlari (chatbotlar, moslashtirilgan o'qitish tizimlari);
- Masofaviy ta'lim dasturlari;
- Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari.

Jamiyat hayotini axborotlashtirishning milliy tizimini yaratish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va jahon axborot resurslaridan foydalanish



imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay sharoitni yaratadi. Ayni o'rinda "**axborot texnologiyasi**" tushunchasi mohiyatini to'la anglab olish tadqiqotni ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Mavjud manbalar bilan tanishish va ularda bildirilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida "**axborot texnologiyasi**" tushunchasining ikki xil ma'noda qo'llash maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilindi. Mazkur tushuncha, birinchidan, ma'lum bir ob'ekt mohiyati to'g'risidagi dalillarga ega bo'lish maqsadida axborotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va uzatishga imkon beruvchi usul va vositalar yig'indisi, ikkinchidan, axborot resurslari bilan ishlash usul va metodlari to'g'risidagi bilimlar manbai (ya'ni fan)ni ifodalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozim, qaysidir ma'noda pedagogik texnologiyalarning barchasi ham axborotlarni yig'ish va uzatishga xizmat qiladi. Zero, uy-tarbiya jarayonini pedagog va uychilar o'rtasida o'zaro axborotlarning almashinishi asosida tashkil etiladi. Zamonaviy sharoitda keng qo'llanilayotgan "ta'limning axborot texnologiyalari" tushunchasi negizida asosan ta'lim-tarbiya jarayonida axborotlar bilan ishlash maqsadida maxsus usul, dastur, elektron nashrlar va texnik vositalar (kino, audio va videotexnikalar, kompyuterlar hamda telekommunikatsiya tarmoqlari)ning qo'llanilishini ifodalaydi. Axborot texnologiyalari axborotlarning qabul qilinishi, to'planishi va uzatilishini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga iste'molchilar o'rtasida o'zaro muloqotni ham yuzaga keltiradi. Ana shu xususiyatiga ko'ra zamonaviy axborot texnologiyalari "**kommunikatsiya texnologiyalari**" sifatida ham e'tirof etiladi.

Xulosa.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishda kuchli vosita hisoblanadi. Biroq bu vositalardan samarali foydalanish uchun pedagogik, texnologik va metodik yondashuvlar bir butun tizim sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ta'limda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish orqali o'quv jarayonining sifati, yondashuvi va natijadorligi sezilarli darajada oshadi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish orqali ularning AKTdan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash mumkin. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy talablarga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Adabiyotlar (APA uslubida):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Raqamli ta'limni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida qaror.
2. Karimov, A., & Islomov, D. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari. Toshkent: O'quv qo'llanma.
3. Abdullayeva, M. (2021). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Metodik qo'llanma.
4. UNESCO. (2018). ICT Competency Framework for Teachers. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.